



THE STUDY OF ABU UBAYD AL-BAKRI'S GEOGRAPHICAL HERITAGE IN THE RESEARCH OF GEORGE SARTON

Javlonbek Abdurahimov

Basic Doctoral Researcher, Fergana State University

E-mail: abdurahimovjavlonbek11@gmail.com

Science ID: MFR-0225-0035

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: George Sarton, Abū 'Ubayd al-Bakrī, geography, ethnographic information, toponymy, scientific methodology, Arabic sources, Arabian Peninsula, Islamic West.

Received: 08.08.26

Accepted: 09.08.26

Published: 10.08.26

Abstract: This article analyzes George Sarton's role in the study of the scholarly legacy of Abū 'Ubayd 'Abd Allāh ibn 'Abd al-'Azīz al-Bakrī from historiographical and source-critical perspectives. The study examines Sarton's assessments of al-Bakrī's personality, scholarly legacy, and place in the history of science in the Islamic West as presented in his Introduction to the History of Science. The article characterizes al-Bakrī as one of the prominent geographers of the eleventh-century Islamic West and as an author who recorded valuable ethnographic information about different peoples, their ways of life, customs, and natural and geographical environments. It also emphasizes that his works contain information on flora, natural resources, and geographical conditions and therefore constitute valuable supplementary sources for the study of the history of medieval botany. The scholarly assessments of al-Bakrī's Kitāb al-Masālik wa-l-Mamālik ("The Book of Routes and Kingdoms") and Mu'jam mā ista'jam ("Dictionary of Geographical Names") offered by Ferdinand Wüstenfeld, George Sarton, and Ignatiy Yulianovich Krachkovsky are comparatively analyzed.

JORJ SARTON TADQIQOTLARIDA ABU UBAYD AL-BAKRIYNING GEOGRAFIK MEROSINI O'RGANILISHI

Javlonbek Abdurahimov

Fargʻona davlat universiteti tayanch doktoranti

abdurahimovjavlonbek11@gmail.com

Ilmiy identifikatsiya raqami: MFR-0225-0035

Fargʻona, Oʻzbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Jorj Sarton, Abu Ubayd al-Bakriy, geografiya, etnografik maʼlumotlar, toponimika, ilmiy metodologiya, arab manbalari, Arabiston yarimoroli, musulmon Gʻarbi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abu Ubayd Abdulloh ibn Abdulaziz al-Bakriyning ilmiy merosini oʻrganishda Jorj Sartonning tutgan oʻrni tarixshunoslik va manbashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda J. Sartonning “Introduction to the History of Science” (“Fan tarixiga kirish”) asarida Abu Ubayd al-Bakriyning shaxsiyati, ilmiy merosi hamda musulmon Gʻarbi ilm-fani tarixidagi oʻrniga berilgan baholar oʻrganiladi. Maqolada al-Bakriy XI asr musulmon Gʻarbining yirik geograf olimlaridan biri hamda xalqlar, ularning turmush tarzi, urf-odatlar va tabiiy-geografik muhiti haqida muhim etnografik maʼlumotlarni qayd etgan muallif sifatida tavsiflanadi. Shuningdek, uning asarlarida oʻsimlik dunyosi, tabiiy resurslar va geografik muhitga oid maʼlumotlar mavjudligi sababli ular oʻrta asrlar botanika tarixini oʻrganishda ham muhim qoʻshimcha manba ekanligi taʼkidlanadi. Abu Ubayd al-Bakriyning “Kitāb al-Masālik wa-l-Mamālik” (“Yoʻllar va mamlakatlar kitobi”) hamda “Muʼjam mā istaʼjam” (“Joy nomlari lugʻati”) asarlariga F. Vyustenfeld, J. Sarton va I. Yu. Krachkovskiy tomonidan berilgan ilmiy baholar qiyosiy tahlil qilinadi.

ИЗУЧЕНИЕ ГЕОГРАФИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ АБУ УБАЙДА АЛЬ-БАКРИ В ИССЛЕДОВАНИЯХ ДЖОРДЖА САРТОНА

Джавлонбек Абдурахимов

Базовый докторант Ферганского государственного университета

E-mail: abdurahimovjavlonbek11@gmail.com

Научный идентификационный номер: MFR-0225-0035

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Джордж Сартон, Абу Убайд аль-Бакри, география, этнографические сведения, топонимика, научная методология, арабские источники,

Аннотация: В статье с и историкографической и источниковедческой точек зрения анализируется роль Джорджа Сартон в

Аравийский полуостров, мусульманский Запад.

изучении научного наследия Абу Убайда Абдаллаха ибн Абд ал-Азиза ал-Бакри. Рассматриваются оценки личности, научного наследия и места ал-Бакри в истории науки мусульманского Запада, представленные в труде Дж. Сартона *Introduction to the History of Science* («Введение в историю науки»). Ал-Бакри характеризуется как один из крупнейших географов мусульманского Запада XI века и как автор, зафиксировавший ценные этнографические сведения о различных народах, их образе жизни, обычаях и природно-географической среде. Подчёркивается также, что его труды содержат сведения о растительном мире, природных ресурсах и географических условиях, в связи с чем они представляют собой важные дополнительные источники для изучения истории средневековой ботаники. В сравнительном аспекте анализируются научные оценки трудов ал-Бакри *Китаб ал-масалик ва-л-мамалик* («Книга путей и государств») и *Му'джам ма иста'джам* («Словарь географических названий»), данные Фердинандом Вюстенфельдом, Джорджем Сартоном и Игнатием Юлиановичем Крачковским.

Kirish. Abu Ubayd Abdulloh ibn Abdulaziz ibn Muhammad ibn Ali al-Bakriy al-Onabiy al-Qurtobiy. Al-Bakriy Ispaniyaning Huelva provinsiyasidagi Uelba va Saltes amirligini boshqargan arab Zodagonlari oilasida taxminan 1014-yilda tug'ilgan. Umrining oxirlarida u Almeriya va Sevilya saroylarida yashagan, vazirlik maqomiga ega bo'lgan, lekin siyosat bilan emas, faqat kutubxonalarda ilmiy ishlar bilan shug'ullangan. U 1094-yilda Qurtobada vafot etgan[1].

Abu Ubayd al-Bakriy ilmiy merosini o'rganishda Jorj Sarton o'rni alohida ahamiyat ega. Sarton XX asr fan tarixi asoschilaridan biri sifatida Sharqning eng mashhur olimlari qatorida Abu Ubayd al-Bakriyni ham alohida o'rganib, tahlil qilgan. Uning "Introduction to the History of Science" ("Fan tarixiga kirish") asari Abu Ubayd al-Bakriy merosini G'arb fan tarixshunosligida tizimli baholashga xizmat qilgan muhim tadqiqotlardan biridir. Al-Xorazmiy matematika va astronomiyada qanday muhim ishlarni amalga oshirgan bo'lsa, Abu Ubayd al-Bakriy ham geografiya va etnografiyada xuddi shunday inqilobiy asarlar yaratganini belgilaydi[2].

Maqolaning asosiy maqsadi Abu Ubayd al-Bakriy ilmiy merosini o'rganishda Sarton ilmiy xizmatlarini ochib berishdan iborat. Bunda Sartonning al-Bakriyga bergan bahosi, uning geografiya va etnografiya tarixidagi o'rini tadbiq etishdagi usuli, al-Bakriy asarlarining islom va G'arb olamiga ilmiy muhitiga ko'rsatgan ta'siri haqidagi qarashlari hamda Vyustenfild, J.Sarton, I.Y.Krachkovskiy va I.Goldssihert tadqiqotlari bilan bog'liqligi tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Abu Ubayd al-Bakriy ilmiy merosini J.Sarton talqinida o'rganishda birlamchi tarixshunoslik manbasi sifatida Jorj Sartonning "Introduction to the History of Science" ("Fan tarixiga kirish") asari asosiy o'rin tutadi. Mazkur asarda Sarton Abu Ubayd al-Bakriyning musulmon G'arbinin eng yirik geograf olimi olimi, o'rta asrlar Shimoliy Afrika va Sharqiy Yevropa hududlari haqida qimmatli tarixiy ma'lumotlar beradigan etnograf olim sifatida ta'riflaydi. Sarton Abu Ubayd al-Bakriyning nafaqat geografiya tarixidagi muhim shaxs emas, balki Arabiston yarimorolidagi ko'plab noto'g'ri talaffuz qilinadigan joy nomlarini to'g'rilagan shaxs sifatida keltiradi.

Abu Ubayd al-Bakriy va uning "Kitob al-masalik va-l-mamolik" asarini bir qancha olimlar tomonidan tadqiq qilingan Xususan, Baron Vilyam Mak-Guk de Slen Abu Ubayd al-Bakriyning ilmiy merosini, ayniqsa uning geografik asarlarini Yevropa ilmiy doiralari tanishtirishda hal qiluvchi rol o'ynagan. Mak-Guk de Slen al-Bakriyga tegishli ushbu asarning arabcha matnini shunchaki tarjima qilmagan, balki to'rtta turli qo'lyozma nusxalari asosida matn tanqidini ishlab chiqqan va tahrir qilgan[3].

Sovet sharqshunosligining eng yirik namoyandasi, arabshunoslik maktabi asoschisi hisoblangan Krachkovskiy Ubayd al-Bakriy va umuman arab geografik adabiyoti bo'yicha qilgan ishlari bugungi kunda ham klassik va fundamental hisoblanadi. Krachkovskiy al-Bakriyning ilmiy merosini tahlil qilishda filologik aniqlikni tarixiy tahlil bilan birlashtirgan[4].

Fransuz sharqshunosligi maktabining eng yirik namoyandalardan biri Andre Mikel Abu Ubayd al-Bakriy va o'rta asr arab geografiyasi bo'yicha dunyodagi eng nufuzli mutaxassislardan biri hisoblanadi. Uning tadqiqotlari al-Bakriy asarlarini shunchaki matn sifatida emas, balki geografiya nuqtai nazaridan tahlil qilishi bilan ajralib turadi. Mikel o'zining ko'p jildli asarlarida al-Bakriyning o'rganib, uni kutubxona olimi emas, balki o'z davri savdogarlari va sayohatchilarining og'zaki tarixini tizimlashtirgan birinchi geograf sifatida baholaydi[5].

Natijalar va muhokama. Jorj Sarton fan tarixini alohida yo'nalish sifatida ajralib chiqishida asosiy ishlarni amalga oshirgan shaxslardan biri hisoblanadi. Uning o'ziga xos yondashuvlari faqatgina G'arb tarixini tadqiq qilish bilan chegaralanmay, yunon, lotin, hind, fors va arab ilmiy an'analarini ham bir qadar tahlil qilgan shaxsdir. Shu borada Sartonning Abu Ubayd

al-Bakriy haqida bergan tahlillari musulmon G'arbi ilmiy merosini o'rganishda amalga oshirilgan muhim ishlardan biri sifatida tan olinadi[6].

Sarton al-Bakriyning shaxsiy hayotiga doir ko'p ma'lumot keltirmaydi. U al-Bakriy yoshligidan ilmga bo'lgan qiziqishini va qobiliyatini alohida ta'kidlab o'tadi. Sarton 1051-yilda Sevilya amirligi al-Bakriy oilasiga tegishli mulkini bosib olgach, oila Qurtuba shahriga ko'chib o'tadi. Sarton aynan mana shu siyosiy inqiroz va saroydan uzoqlashish al-Bakriyni fanga, xususan geograf olim al-Uzriy qo'lida ta'lim olishga undaganligini aytadi[7].

J.Sarton tadqiqotlarida Buxoriy ilmiy merosini o'rganish ikki yo'nalishda ko'zga tashlanadi. Birinchidan, al-Bakriy geograf va etnograf olim sifatida tahlil qilinadi. Ikkinchidan, u qoldirgan asarlar manbashunoslik nuqtayi nazaridan o'ziga xos ilmiy metodlarga foydalanganligi sababli ham alohida e'tiborga loyiq ko'riladi. Sarton al-Bakriyning bergan ma'lumotlar o'rta asrlarda Qurtuba amirligining qaysi davlatlar bilan aloqalarini qay tariqa amalga oshirganligini va u yerlardagi siyosiy, ijtimoiy-ijtisodiy vaziyat to'g'risida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Abu Ubayd al-Bakriyning asosiy asari "Kitob al-masalik va-l-mamolik" asari hisoblanadi. Ushbu asar ko'plab geografik va etnografik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Sartonning ta'kidlashicha, al-Bakriy o'zi yashagan hududdan (Andalusiyadan) tashqariga deyarli chiqmagan bo'lsa-da, Qurtuba xalifaligi va turli amirliklar saroylariga kelgan elchilar, savdogarlar va sayyohlarning hisobotlarini tahlil qilgan va tizimlashtirgan. Sarton al-Bakriyning Gana imperiyasi, Sahroyi kabir trans-savdo yo'llari, shuningdek, Sharqiy Yevropa va slavyan xalqlari haqida qoldirgan ma'lumotlarini "baho berib bo'lmay birlamchi manba" deb hisoblaydi[8].

Krachkovskiyning al-Bakriy haqidagi eng muhim tadqiqotlari uning "Арабская географическая литература" ("Arab geografik adabiyoti tarixi") asarida mujassamlashtirgan. Krachkovskiyning fikricha, al-Bakriy o'zidan oldingi geografik olimlar, xususan al-Varroq va Ibrohim at-Turtushiy ma'lumotlarini shunchaki to'plab qolmay, ularni tanqidiy saralab, adabiy va ilmiy jihatdan mukammallashtirgan. Shuningdek, Krachkovskiy al-Bakriyning shaxsan ko'p sayohat qilmay turib qanday qilib o'z davrining eng ishonchli manbalarini yarata olganini manbashunoslik tanqidi usuli bilan tushuntirib bergan[9].

Al-Bakriyning ikkinchi yirik asari — "Mu'jam ma istu'jim" asari bo'lib, lingvistik va ilmiy qiymatiga yuqori hisoblangan. Ushbu asar asosan Arabiston yarim orolidagi joy nomlari va ularning imlosiga bag'ishlangan. Shu boisdan ham asar Xi asr Arabiston yarimoroli tarixi uchun juda muhim hisoblanadi. Sarton buni shunchaki lug'at emas, balki geografik nomlarning noto'g'ri o'qilishi va xato talqin qilinishining oldini olgan birinchi toponimik qomus deb baholaydi[10].

Geografik lug'atshunoslikda ko'plab muhim ishlarni amalga oshirgan mashhur nemis sharqshunosi Ferdinand Vyustenfild Abu Ubayd al-Bakriy asarlarini tadqiq etishda asosiy

ishlardan birini bajargan. Vyustenfeld al-Bakriyga tegishli bo'lgan "Mu'jam ma ista'jam" asarini o'rta asr arab adabiyotida geografik nomlarning to'g'ri yozilishi va ularning kelib chiqishini tushuntirib beruvchi eng yirik qomusiy lug'atlardan biri sifatida talqin qiladi. Asar 1876–1877 yillarda Göttingen shahrida ikki jildda nashr etilgan. Vyustenfeld bu nashri orqali arab geografiyasidagi qiyin va tushunarsiz joy nomlarini ilmiy muomalaga kiritdi. Uning bu ishi o'rta asr musulmon olami topografiyasini, xususan, Arabiston yarim orolidagi qabilaviy hududlar va tarixiy maskanlarni o'rganayotgan har qanday tadqiqotchi uchun kalit vazifasini o'taydi[11].

Polshalik sharqshunos T. Levitskiy al-Bakriy asarlaridagi Yevropaga oid qismlari ustida chuqur tadqiqot olib borgan. Levitskiy al-Bakriy X-XI asrlardagi Polsha, Chexiya va qadimgi Rus davlatining ijtimoiy-siyosiy hayoti, savdo aloqalari va madaniyatini yoritishda eng ishonchli arab manbasi ekanligini isbotlagan. U al-Bakriyni matnlarni qayta ishlashda o'ta tanqidiy yondashgan olim deb biladi[12].

Fransisko Borxa de Egilaz va Reynhart Dozi al-Bakriy faqat geograflar tomonidan o'rganiladi, biroq uning o'simliklar olamiga bag'ishlangan "Kitob al-Anvar fi ma'rifat al-azman va-l-anva" (Vaqlar va ob-havoni bilish bo'yicha nurlar kitobi) asari tabiatshunoslik tarixi uchun inqilobiy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlashadi[13]. Dozi va ispan olimi F. Egilaz al-Bakriyning ushbu asarida qishloq xo'jaligi, agronomiya, astronomik taqvimlar va shifobaxsh o'simliklar bo'yicha keltirgan ma'lumotlarini tahlil qilishgan. U o'simliklarning lotin, ispan va arabcha nomlarini o'zaro muvofiqlashtirgan. Dozi Al-Bakriy XII asrda Andalusiyada botanika fanining portlash darajasida rivojlanishiga terminologik baza yaratib bergan bosh olimdir sifatida biladi[14].

Shu bilan birga, Sarton yondashuvining ma'lum chegaralari ham mavjud. Birinchidan, Sartonning Buxoriyning asosan ilmiy merosiga doir ma'lumotlarni bergan. Ikkinchidan, Sarton Abu Ubayd al-Bakriy merosini baholashda o'z davrigacha mavjud bo'lgan nashrlar, tarjimalar va ikkilamchi adabiyotlarga tayanishga majbur edi. Uchinchidan, Abu Ubayd al-Bakriyning geografiya va etnografiya masalalari Sarton davrida hali to'liq hal etilmagan edi.

Shunday bo'lishiga qaramay, bu chegaralar Sartonning ilmiy ahamiyatini kamaytirmaydi. Aksincha, ular Sarton tadqiqotlarining keyingi fan tarixshunosligi uchun o'ziga xos zamin yaratganini ko'rsatadi. Sarton Abu Ubayd al-Bakriy merosini yunon, arab, fors va lotin ilmiy an'analari bilan uzviy davomiylikda baholadi. Bu esa o'rta asr musulmon G'arbi fan tarixini zamonaviy ilmiy muomalaga kiritishda muhim metodologik qadam bo'ldi.

Xulosa. Abu Ubayd al-Bakriy ilmiy merosini o'rganishda Jorj Sartonning o'rni bir necha asosiy jihatda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, Sarton Abu Ubayd al-Bakriyni musulon G'arbining buyuk geograf va etnograf olim sifatida tahlil qiladi. U amalga oshirgan ishlar Nafaqat musulmonlar uchun balki, G'arb tarixini o'rganish uchun ham asosiy manbalardan bir bo'lib xizmat qiladi. Boshqa sharqshunos olimlar esa al-Bakriyni botanik nomlarni o'zaro muvofiqlashtirgan shaxs sifatida ko'rishadi.

Ikkinchidan, Sarton Abu Ubayd al-Bakriyning qoldirgan ma'lumotlari shunchaki etnografik va geografik ma'lumotlar bo'lib qolmasdan, ushbu nomlarning imlosiga bag'ishlangan mukammal asar ham hisoblanadi.

Uchinchidan, Abu Ubayd al-Bakriy islom renessansini Yevropaga ta'sir ko'rsatishda ham bir qadar ishlarni amalga oshirgan, uning islom olami to'g'risida to'plagan ma'lumotlari o'sha davr tarixi uchun muhim manbadir. Al-Bakriyning bu ishlarini Sarton faktlarni tekshirish va ularni ishonchliligini aniqlash jarayoni sifatida talqin qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sarton, G. Introduction to the History of Science. Vol. I: From Homer to Omar Khayyam. — Baltimore: Carnegie Institution of Washington, 1927. — pp. 768-769.
2. Sarton G. Introduction to the History of Science. Vol. I: From Homer to Omar Khayyam. — Baltimore: Williams & Wilkins Co., 1927. — P. 625-626.
3. Al-Bakrī, Abū 'Ubayd. Kitāb mu'jam mā ista'jam. Éd. par le baron W. Mac Guckin de Slane. Paris: Imprimerie Nationale, 1876-1877, s. 12-15.
4. Krachkovskiy, I. Yu. Arabskaya geograficheskaya literatura. Moskva: AN SSSR, 1957, s. 250-255.
5. Miquel, André. La géographie humaine du monde musulman jusqu'au milieu du XIe siècle. Vol. 2. Paris: Mouton, 1975, s. 345-352.
6. Sarton G. Introduction to the History of Science. Vol. I: From Homer to Omar Khayyam. — Baltimore: Williams & Wilkins Co., 1927. — P. 625-626.
7. Sarton, G. Introduction to the History of Science. Vol. I: From Homer to Omar Khayyam. — Baltimore: Carnegie Institution of Washington, 1927. — pp. 768-769.
8. Sarton, G. Introduction to the History of Science. Vol. I: From Homer to Omar Khayyam. — Baltimore: Carnegie Institution of Washington, 1927. — pp. 768-769.
9. Krachkovskiy, I. Yu. Arabskaya geograficheskaya literatura. Moskva: AN SSSR, 1957, s. 250-255.
10. Sarton, G. Introduction to the History of Science. Vol. I: From Homer to Omar Khayyam. — Baltimore: Carnegie Institution of Washington, 1927. — pp. 768-769.

11. Wüstenfeld, Ferdinand. Das geographische Wörterbuch des Abu-Obeid el-Bekri. 2 Bde. Göttingen: Vandenhoeck & Ruprecht, 1876–1877, S. 20–25.
12. Lewicki, T. Źródła arabskie do dziejów Słowiańszczyzny. Vol. II. — Wrocław: Ossolineum, 1969. — pp. 35–110.
13. De Egilaz, Francisco Borja. Ensayo etimológico etimológico sobre los nombres de plantas y frutos en árabe. Granada: Imprenta de D. Ventura Sabatel, 1886, s. 14–17; Dozy, Reinhart. Suppléments aux dictionnaires arabes. T. 1. Leyde: E. J. Brill, 1881, s. 82–84.
14. Dozy, R. Le Calendrier de Cordoue de l'année 961. Nouvelle édition accompagnée d'une traduction française par Ch. Pellat. — Leiden: E. J. Brill, 1961. — pp. 45–62.